

G‘ulomova Maftuna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti matnshunoslik va adabiy manbashunoslik fakulteti 2- kurs magistranti

„QUTADG‘U BILIG“ ASARI VA UNING O‘RGANILISHI

Annotatsiya: Ushbu maqola Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig“ asariga bag‘ishlangan bo‘lib, undagi tabdillar va uning o‘rganilishi haqida so‘z boradi. “Qutadg‘u Bilig,,ning turkiy adabiyotdagi o‘rni va ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot davomida asarning tabdillaridagi o‘zgarishlar hamda turli janrlardagi namoyon bo‘lishi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: “Qutadg‘u Bilig”, Yusuf Xos Hojib, janrlar, tabdillar, o‘rta asr turkiy adabiyoti.

Yusuf Xos Hojib tomonidan 1069–1070 yillarda yozilgan „Qutadg‘u bilig“ asari o‘z davrining eng muhim adabiy va ilmiy yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Ushbu asar turkiy xalqlarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari, davlat boshqaruvi, axloq va ma‘naviyat haqidagi bilimlarini aks ettiradi. „Qutadg‘u bilig“ nafaqat siyosiy va ijtimoiy masalalarga bag‘ishlangan, balki u turkiy til va madaniyatni rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Asarning turli tillarga tarjima qilinishi va o‘ziga xos janrlarda qayta talqin etilishi uning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Sharq adabiyotining noyob durdonalaridan biri bo‘lmish „Qutadg‘u bilig“ („Baxt-saodatga eltuvchi bilim“) asri Qoraxoniylar davrida yashagan Yusuf Xos Hojib qalamiga mansubdir. Asar 1069-1070-yillarda yozilib, davlat xoqoni Tablach Ulug‘ Bug‘roxonga tortiq etadi. Xon esa bundan xursand bo‘lib mutaffakirga „hojiblik“ maqomini beradi:

Bug‘roxon vaqtida yozildi ayon,

Yana xon tilicha etilgan bayon.

Bu yanglig‘kitoni kim aytgan azal,

Keyin ham kim aytar bu qadar go‘zal?!¹

Asar nafaqat turkiy xalqlar tomonidan balki butun ilm ahlining e‘tiborini tortib kelmoqda. Turkiya Rossiya-Turkiya munosabatlari tadqiqotlari markazi direktori Apollinariya Avrutina shunday deydi: „Qutadg‘u bilig“ dostoni nafakat dunyo adabiyoti durdonalari qatoridan joy olgan, balki shu kunlarda ham butun dunyodagi insonlarni birlashtirayotgan asarlardandir. Doston sahifalarida bayon etilgan insonparvarlik g‘oyalari bizning davrda ham o‘zining o‘ta dolzarbligini yo‘qotmagan, asar matniga joriy qilingan g‘oyalarning axloqiy va

¹ To‘xliyev B. *Qutadg‘u bilig*. Toshkent: Cho‘lpon, 2017. 11-bet.

tarbiyaviy ahamiyati esa bu adabiy yodgorlikka zamonaviy ruh bag‘ishlaydi”.² Chinliklar uni „Adab ul-muluk“, mochinliklar „Oyin ul-mamlakat“, Sharqiy xitoyliklar „Ziynat ulumaro“, eronliklar „Shohnomai turkiy,, ba‘zilar „Pandnomai muluk“, turonliklar esa „Qutadg‘u bilig“ deb ataganlar. Asarning uchta qo‘lyozma nusxasi bo‘lib, Uyg‘ur yozuvida ko‘chirilgan nusxa Vena saroy kutubxonasida, arab yozuvida ko‘chirilgan ikkita nusxalardan biri Qohirada, Fitrat tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan nusxa Toshkentda Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanmoqda.

Asar dialogik shaklda yozilgan bo‘lib, qahramonlar o‘rtasidagi suhbatlar orqali fikrlarni bayon qilish uslubi qo‘llanilgan. Masalan, asarda to‘rt asosiy obraz – Adolat (Kuntug‘di), Baxt (Ayto‘ldi), Aql (O‘gdulmish), va Qanoat (O‘zg‘urmish) – bir-birlari bilan muloqot qilish orqali ijtimoiy va ma‘naviy masalalarni muhokama qiladilar. Bu dialoglar o‘quvchini asarning asosiy g‘oyalarini chuqur anglashga undaydi:

Biri to‘g‘rilikka tayanch – ADOLAT,

Biri DAVLAT erur, u qutli g‘oyat.

Uchinchi – ulug‘lik AQL ham ZAKO,

To‘rtinchi – QANOAT erur bebeho.³

Asarning ko‘plab qismlari she‘r shaklida yozilgan. Bunday she‘riy shakl o‘sha davr-

dagi adabiy an‘analalar bilan uyg‘unlashgan va o‘quvchilar uchun ma‘naviy-didaktik mazmunni o‘zlashtirishni yengillashtirgan. She‘rlarning badiiy go‘zalligi va ritmik tuzilishi asarni yanada jozibador qilgan.

Bugungi kunda „Qutadg‘u bilig“ asari nafaqat adabiy asar sifatida, balki ijtimoiy va falsafiy tadqiqotlar uchun manba sifatida ham katta ahamiyatga ega. Undagi davlat boshqaruvi, adolat va ma‘naviy qadriyatlar haqidagi g‘oyalar zamonaviy jamiyat uchun dolzarbligini yo‘qotmagan. Ayniqsa, globalizatsiya jarayonida turli xalqlarning ma‘naviy merosini o‘rganish muhim bo‘lib, „Qutadg‘u bilig“ bu borada boy ilmiy adabiyot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Asarda ko‘tarilgan masalalar, masalan, adolatlilik boshqaruv, inson huquqlari va axloqiy tarbiya, hozirgi kunda ham dolzarbdir. Bu g‘oyalar bugungi jamiyatda adolat va tenglik tamoyillarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, „Qutadg‘u bilig“ning mazmuni zamonaviy tadqiqotlarda, shu jumladan siyosatshunoslik, sotsiologiya va falsafa sohalarida qo‘llanilishi mumkin.

Jahon turkshunoslaridan V.V.Radlov, A.Vamberi, P.M. Melioranskiy, A.A Samoylovich, R.R Aratlar asarni o‘rganib ko‘plab ilmiy yangiliklarni e‘lon qildilar. Emin Usmon, Fazliddin

² Apallinariya Avrutina. Jahon turkalogiyasining buyuk obidasi “Qutadg‘u bilig” va uning o‘rganilishining dolzarb masalalari. Xalqaro konferensiya to‘plami. 9-bet

³ To‘xliyev B. *Qutadg‘u bilig*. Toshkent: Cho‘lpon, 2017. 13-bet.

Ravshan, A. Pardayev, Qayumjon Karimov, Boqijon To‘xliyev tabdillari ham asarni o‘rganishda qilingan salmoqli ishlar qatoriga kiradi.

„Qutadg‘u bilig“ asari turkiy adabiyotning noyob durdonasi bo‘lib, uning janr va mazmun jihatlari o‘z davrining ilg‘or qarashlarini aks ettiradi. Asarning turli tillarga tarjima qilinishi uning universalligini ko‘rsatadi. Yusuf Xos Hojib tomonidan yozilgan bu asar nafaqat o‘rta asr madaniyati, balki zamonaviy ilm-fan va adabiyot uchun ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yusuf Xos Hojib. *Qutadg‘u Bilig*. Toshkent: Fan, 1990.
2. Ko‘charov M. *O‘rta asr turkiy adabiyoti*. Toshkent: O‘zbekiston, 2010.
3. Qayumov A. *Qutadg‘u Bilig: Tarixiy va badiiy o‘rganishlar*. Toshkent: Yang asr avlodi, 2015.
4. Bartold V.V. *Turkiy xalqlar tarixi*. Moskva: Nauka, 1968.
5. Yusupov T. *Turkiy adabiyotlar tarixi*. Toshkent: Sharq, 2001.
6. To‘xliyev B. *Qutadg‘u bilig*. Toshkent: Cho‘lpon, 2017.